



CARTOGRAPHY OF UZBEKISTAN: HISTORICAL DEVELOPMENT AND FUTURE PROSPECTS

Mukhiddinjon Primov

Associate Professor, PhD

Kimyo International University in Tashkent

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: muxiddinjon@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: cartography, geodesy, mapping, geography, scientific research, Uzbekistan, economic cartography, atlas, geobotany, geoecology, reclamation geography.

Received: 22.03.25

Accepted: 24.03.25

Published: 26.03.25

Abstract: This article examines the formation of the cartography science in Uzbekistan, its main stages of development, and the scientific research conducted in this field. It also highlights the activities of the Department of Geodesy and Cartography, the contributions of prominent scientists to the development of cartographic science, and their research work. Special attention is given to the progress of the Uzbek cartographic school, the established scientific directions, and the issues related to the creation of economic, social, and environmental maps.

O‘ZBEKISTON KARTOGRAFIYASI: TARIXIY TARAQQIYOT VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Muhiddinjon Primov

dotsent, PhD

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: muxiddinjon@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: kartografiya, geodeziya, xaritalashtirish, geografiya, ilmiy-tadqiqot, O‘zbekiston, iqtisodiy kartografiya, atlas, geobotanika, geoekologiya, meliorativ geografiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda kartografiya fanining shakllanishi, uning rivojlanish bosqichlari va bu sohada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, geodeziya va kartografiya kafedrasi faoliyati, kartografiya sohasidagi taniqli olimlarning hissasi va ilmiy izlanishlari haqida ma’lumot berilgan. O‘zbekiston kartografiya maktabining

taraqqiyoti va unda shakllangan ilmiy yoʻnalishlar, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiyaga oid xaritalarni tuzish masalalari ham yoritilgan.

КАРТОГРАФИЯ УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ БУДУЩЕГО

Муҳиддинжон Примов

Доцент, PhD

Ташкентский международный университет Кимё

Ташкент, Узбекистан

E-mail: muxiddinjon@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: картография, геодезия, картографирование, география, научные исследования, Узбекистан, экономическая картография, атлас, геоботаника, геоэкология, мелиоративная география.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование науки картографии в Узбекистане, её основные этапы развития и проведённые в этой области научно-исследовательские работы. Также освещена деятельность кафедры геодезии и картографии, вклад выдающихся учёных в развитие картографической науки и их научные исследования. Особое внимание уделено развитию узбекской картографической школы, сформировавшимся научным направлениям, а также вопросам создания экономических, социальных и экологических карт.

Oʻzbekistonda kartografiya sohasining rivojlanishi va unga doir barcha faoliyatlarni muvofiqlashtirishda asosiy markaz sifatida Oʻrta Osiyo davlat universiteti (hozirgi OʻzMU)ning Geografiya fakulteti tarkibidagi Geodeziya va kartografiya kafedrasi muhim oʻrin tutadi. Mazkur kafedra sohaga oid fanlar tizimini shakllantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, keng koʻlamli ilmiy tadqiqotlarni olib borish, yangi avlod kartografik asarlarining mazmunini ishlab chiqish va ularni nashrga tayyorlashda yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, erishilgan ilmiy yutuqlarni taʼlim-tarbiya jarayoni hamda amaliy faoliyatga joriy etish, sohadagi dolzarb muammolarni tahlil qilish va istiqbolli yoʻnalishlarni belgilash borasida ham muhim vazifalarni bajarib kelmoqda.

XX asrning 20-yillari oxiri – 30-yillari boshida Tuproqshunoslik va geobotanika institut olimlari M.A. Orlov Oʻzbekistonning, M.A. Pankov – Tojikistonning, K.M. Klavdiyenko Qoraqalpogʻiston, Turkmaniston va Qirgʻizistonning va butun Oʻrta Osiyoning obzor tuproq xaritalarini tuzishdi.

N.V. Kimbergning yozishicha, institut xodimlari 1931-1932-yillarda O'rta Osiyodagi 30 ga yaqin paxtakor sovxoz (maydoni 200 ming ga)ning 1:100 000 masshtabli tuproq xaritalarini tuzib chiqishgan [4. – B. 96-97.].

30-yillarning oxiridan kartografiyaga kartografik xaritalarni (voqelikni namoyish qilishning maxsus metodi sifatida) va jarayonlarini o'rganadigan fan sifatida ko'rib chiqila boshlandi [9. – C. 257.]. Bularning barchasi kartografiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Iqtisodiy kartografiya bo'yicha ilmiy va nazariy tadqiqotlar olib borgan Sovet iqtisodiy geograf va kartograflari iqtisodiy kartografiyada metodologik asoslarni kiritishdi. 1932-yilda MDU ning Geografiya ilmiy-tadqiqot institutida iqtisodiy xaritalar bo'yicha maxsus seminar tashkil etildi. O'sha vaqtdan boshlab ushbu universitetning Geografiya fakultetida "Iqtisodiy kartografiya" kursi o'qitildi. Keyin ushbu kurs ba'zi boshqa o'quv muassasalarining o'quv dasturlariga kiritildi [3. – C. 47.].

Maktab kartografiyasining rivojlanishida 1932-yildagi Butunittifoq Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasi(b) va Xalq Komissarlari Kengashining 1934-yilda o'rta maktablarda geografiyani o'qitishga oid qarorlari ta'sir ko'rsatdi, ularda "geografik xaritani puxta bilish" zarurligi ta'kidlandi.

1939-yilda xaritashunoslikning birinchi nashri – oliy ta'lim uchun darslik nashr etildi. Undagi kartografik proyeksiyalar nazariyasi muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan bo'lib, uni ishlab chiqishda V.V. Kavrayskiyning xizmati katta bo'ldi [9. – C. 255-257.].

1945-yili O'rta Osiyo davlat universitetida mustaqil Geografiya fakulteti tashkil qilingandan so'ng, uning tarkibida to'rtta kafedra, chunonchi tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, quruqlik gidrologiyasi hamda geodeziya va kartografiya kafedrasida ish boshladi. Fakultetda 1946-yili kartografiya ixtisosligi ochildi va 1950-yili birinchi yosh kartograf mutaxassislar tayyorlashga erishildi. Kafedraga dastlab prof. N.I. Lebedinskiy, so'ng topograf F.L. Toropkin, prof. I.G. Krasovskiy, katta o'qituvchi I.G. Chernyak, dotsent Ch.V. Galkov, prof. T.M. Mirzaliyev, dotsentlar Y.G. Brodskiy, A. Egamberdiyev, L.H. G'ulomova va X. Muborakov mudirlik qilishgan.

1958-yilda O'zbekiston SSR da kartograf kadrlarni tayyorlash uchun O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan pedagogika institutlari o'quv dasturlariga ko'ra talabalarga xaritalarni tuzish, tahrir qilish va nashr etish to'g'risida 32 soat ma'ruza va xaritalarni tuzish hamda o'qishni o'rganish uchun 32 soat amaliy mashg'ulot uchun dars soati ajratilgan [7. – B. 20.]. 1956-yilda esa kartograflarni tayyorlash uchun tuzilgan bu dasturdagi dars soatlari 56 soatni tashkil etardi [8. – B. 22-23.]. Bundan ko'rinib turibdiki,

kartograf kadrlarga bo'lgan talab ularni yanada yaxshiroq o'qitishga va dars soatlarni ko'paytirishga olib kelgan.

O'zbekistonda atlas kartografiyasi ilmiy maktabining shakllanishi va rivojlanishiga hamda ushbu sohaning taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, geografiya fanlari doktori, professor Turg'unboy Mirzaliyev nomi bilan bevosita bog'liq. U ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida O'zbekiston kartograflarining yutuqlari bilan xorij mamlakatlari olimlarini tanitdi va yaratilgan kartografik asarlarning keng ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinishini ta'minladi.

1965-yili T. Mirzaliyev o'zbek kartograflari orasida birinchi bo'lib, taniqli olim, texnika fanlari doktori, professor M.I. Nikishov rahbarligida "O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini xaritaga olishning ayrim masalalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qildi [13. – B. 345.]. 1964-1966-yillarda T. Mirzaliyev O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Geografiya bo'limida katta ilmiy xodim lavozimida, 1966-yil 1-sentabrdan ToshDU Geografiya fakulteti "Geodeziya va kartografiya" kafedrasini mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Turg'unboy Mirzaliyevning tashabbusi bilan 1967-1968-o'quv yilidan boshlab mazkur kafedrada "Geografiya" mutaxassisligi negizida "Geograf-kartograf" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash qayta yo'lga qo'yildi[1].

Ushbu yo'nalish bo'yicha 1971-1975-yillar davomida yetishib chiqqan kartograflarni quyidagi jadval orqali bilib olishimiz mumkin [12]:

	"Geograf-kartograf" mutaxassisligi bo'yicha
Ta'lim turi	Kunduzgi
1971-yil	11
1972-yil	10
1973-yil	7
1974-yil	11
1975-yil	6

Afsuski, 1976-yildan toki 1996-yilgacha ushbu kafedrada "Geograf-kartograf" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash to'xtatib qo'yildi. Kartograf mutaxassislar asosan Moskva va Leningrad universitetlarida ta'lim olishga majbur bo'ldilar.

Professor Ziyovuddin Muxiddinovich Akramov O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanini rivojlantirish ishiga katta hissa qo'shgan va bu sohada geografiya fanlari doktori ilmiy darajasiga erishgan birinchi o'zbek olimi hisoblanadi.

Z. Akramov O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga, jumladan, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi kompleksiga bog'liq turli, sohalarni majmualari iqtisodiy-geografik jihatdan o'rganish, shu asosda iqtisodiyot tarmoqlarini respublika mintaqalari bo'ylab

oqilona hududiy tashkil etish va kompleks rivojlantirishni tadqiq etish ishlariga asos solgan olimlardan biri sanaladi [6. – C. 36.].

Olib borgan ilmiy ishlarining natijasi o'larok, 1953-yilda "Namangan viloyatiga iqtisodiy-geografik tavsif" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimning nomzodlik ishi doirasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari 1955-yilda "Namangan viloyati" nomi bilan nashr etilgan.

O'zbekistonning Janubiy Orolbuyi mintaqasi, Mirzacho'l va Qizilqum cho'llarini piyoda kezib chiqqan Asom Rafikov ushbu hududlardagi geotizimlarning dengiz qurishi bilan bog'liq xolda turli davrlarda tadrijiy o'zgarishini kompleks tadqiq etib, yaratgan qator asarlari bilan o'zbek meliorativ geografiya va geoekologiyasi ilmiy yo'nalishlari shuxratini butun dunyoga yoydi.

1972-yildan boshlab olimning faoliyati O'zbekiston Fanlar akademiyasining Geografiya bo'limi bilan bevosita bog'liq. 1972-1990-yillar davomida Janubiy Orolbo'yiga bir necha bor safar qilgan olim Orol dengizi atrofidagi landshaftlarning tadrijiy o'zgarishini mukammal o'rgangan [2. – B. 8].

A. Rafikov serqirra ilmiy faoliyat olib borgan o'zbek olimlaridan. Uning ilmiy tadqiqotlari qamrovi keng bo'lib, geografik bashoratlashtirish, inson xo'jaligining faoliyati ta'sirida tabiiy muhit va ekologik vaziyatning o'zgarishi, meliorativ geografiya, arid mintakalarida cho'llanishning rivojlanishi, Orol dengizi va Janubiy Orolbuyi muammosi, geoekologiya, ekologik xaritalashtirish kabi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Olim 40 yillik faoliyati davomida samarali ijod qilib, 270 dan ortiq ilmiy maqola, 12 ta monografiya, 10 ta risola, 5 ta darslik, 3 ta o'quv ko'llanma yozgan va 1982-1983-yillari chop etilgan II jildan iborat kompleks geografik ilmiy-ma'lumotnoma "O'zbekiston SSR atlasi"ni yaratishda katta hissa qo'shgan [14. – B. 4-7.].

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan paxtachilikni kompleks ravishda xaritalashtirish va shu asosda turli ijtimoiy xaritalarni yaratish masalalarini tadqiq etishning rivojlanishida geografiya fanlari nomzodi dotsent Asomberdi Egamberdiyevning xizmatlari katta. Toshkent davlat universiteti Geografiya fakultetiga 1966-yilda «kartografiya» yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan dastlabki guruhning bitiruvchi sifatida olim kartografiya, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy kartografiyaga oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ushbu fanni oliy maktabda o'qitish borasidagi say-xarakatlari tufayli O'zbekistonning taniqli kartografiya mutaxassislaridan biriga aylandi [16. – B. 204.].

A. Egamberdiyev ilmiy va amaliy faoliyatini 1972-yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Geografiya bo'limida kichik ilmiy xodim lavozimida boshlagan. 1974-yilning

sentabr oyidan boshlab Toshkent davlat universiteti Geodeziya va kartografiya kafedrasiga ishga taklif etilgan. Universitetdagi pedagogik faoliyatni ilmiy tadqiqotlar bilan birga olib borib, 1983-yilda Ukraina FA Geografiya institutida “Paxtachilikni atlasli xaritaga olish (O‘zbekistan misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

A. Egamberdiyev O‘zbekistonning dastlabki “O‘quv o‘lkashunoslik atlaslari” (1981), O‘zbekistonning ikki jildli kompleks geografik ilmiy ma’lumotnoma atlaslari (1982-1985), “Sotsial-iqtisodiy kartografiya” (1989), qishloq xo‘jaligi xaritalari va atlaslarini ilmiy muharriri, muallifi va hammuallifidir.

300 dan ortiq ilmiy ishlar, darslik va o‘quv kullanmalar muallifi A. Egamberdiyevning ilmiy faoliyat doirasi keng qamrovli bo‘lib, u O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi kartografiyasi va kompleks xaritaga olishning rivojlanishi, hozirgi holati, muammolari va istiqbollari bag‘ishlangan.

Texnika fanlari doktori, professor Safarov Eshqobul Yuldashovich 1980-yili Moskva geodeziya, aerofotosyemka va kartografiya injenerlari instituti (hozirgi Moskva geodeziya va kartografiya universiteti) Kartografiya fakultetini tugatib, Toshkent injener-texnik qidiruv instituti (TashGIITI)da boshlab, dastlab injener, keyinchalik guruh rahbari va maxsus bo‘lim bosh mutaxassisi lavozimlarida ishladi va Toshkent shahridagi yirik qurilish obyektlarini loyihalashda, chunonchi Toshkent metropoliteni, Turkiston san‘at saroyini qurilishida faol ishtirok etdi.

E.Y. Safarov ilmiy-pedagogik faoliyatini 1988-yili O‘zR FA Geografiya bo‘limida kichik ilmiy xodim lavozimida boshladi [10. – B. 20-21.]. U bu yerda taniqli olimlar A.A. Rafiqov va T.M. Mirzaliyevlar rahbarligida sug‘oriladigan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini olib borish, aerokosmik suratlarni deshifrovka qilish, loyihalash va tuzish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi.

Lola G‘ulomova 1980-yilda MDU ning geografiya fakultetiga kartografiya yo‘nalishi bo‘yicha aspiranturaga kirib, 1983-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagach Tosh DU ning (hozirgi O‘z MU) Geodeziya va kartografiya kafedrasiga o‘z ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Ilmiy ishlari asosan aholining geografik joylashuvida aerokosmik usullardan foydalanishga bag‘ishlab, 1982-1985-yillarda yaratilgan kompleks geografik ilmiy-ma’lumotnoma “O‘zbekiston atlaslari”ga katta xissa qo‘shgan. L. G‘ulomova tomonidan bitta monografiya, bir qator mavzuli xaritalar va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan [5. – B. 46.].

O‘zbekiston kartograflari ichida ilm yo‘lini tanlagan va pirovard natijada shu sohaning taniqli mutaxassisi bo‘lgan olim geografiya fanlari nomzodi, dotsent Jo‘raboy Sariboyevich Qoraboyev 1979-yili MDU ning “Kartografiya va Geodeziya” kafedrasiga professori

I.P. Zarutskaya rahbarligida “Kartografiya” mutaxassisligi bo’yicha “Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish xaritalarini maxsus mazmunini ishlab chiqish va tuzish uslublari” (O‘zbekiston misolida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qildi [16. – B. 204.]. Dissertatsiyada ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi uchun 1:1 000 000 masshtabli “Tabiatni muhofaza qilish” xaritasi yaratilgan va keyinchalik bu xarita 50 nusxada ko‘paytirilib O‘zbekistonga tarqatildi.

Jo‘raboy Saraboyevich 1980-1988-yillarda GS “Priroda” tashkiloti O‘zbekiston bo‘limining ilmiy-tekshirish sektoriga rahbarlik qildi. Bu sektor, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari uchun 1:500 000 masshtabdagi mavzuli xaritalarni aerokosmik ma’lumotlar asosida tuzishni boshqardi. Tabiiy boyliklarni majmuaviy kartografik inventarizatsiya qilish ishlarida faol qatnashdi. U sektor xodimlarining faol ishtiroki bilan O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari uchun landshaft va tabiatni muhofaza qilish xaritalari yaratdi va nashr qildi. Bundan tashqari olim 1982-1985-yillarda chop etilgan O‘zbekiston Respublikasining ikki jildlik majmualiy atlasini yozishda, atlas kompanovkasini tuzishda va tabiatni muhofaza qilish bo‘limi xaritalarini tuzishda faol ishtirok etdi.

1988-1990-yillarda O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining bosh mutaxassisi lavozimida ishlab, sobik Ittifoqda birinchilar qatorida chop etilgan 1:1 000 000 masshtabli O‘zbekiston Respublikasini ekologik xaritasini tayyorlashda ishtirok etdi.

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent Qorabayeva To‘xtaxon Maxkambayevna 1972-1976-yillarda 2 jildli O‘zbekistonning majmualiy kompleks atlasini yaratishda faol ishtirok etdi. Mazkur atlasning dasturini, kompanovkasini, tabiiy xaritalar bo‘limlaridagi xaritalarni tuzishda xarita mualliflariga kartograf maslahatchi sifatida yordam berib bordi. Shu atlasdagi tabiiy sharoitni melioratsiya va qishloq xo‘jalik maqsadlari uchun baholash xaritalarining hammuallifidir.

1977-1980-yillarda T.M. Qorabayeva MDU ning kartografiya va geodeziya kafedrasida professor K.A. Salishev rahbarligida aspiranturada taxsil oldi va 1981-yilda kartografiya mutaxassisligi bo’yicha “Sug‘oriladigan va yangi o‘zlashtirilayotgan yerlarning tabiiy sharoitini melioratsiya maqsadlari uchun baholash xaritalarining mazmunini yaratish uslubi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [16. – B. 204.].

1980-1984-yillarda u o‘z ish faoliyatini O‘zbekiston Fanlar akademiyasi geografiya bo‘limida davom ettirib, Toshkent shahrining 2000 yilligiga bag‘ishlangan Toshkent geografik atlasini yaratishda faol ishtirok etdi.

1984-yildan TIQXMII ning yer tuzish fakulteti geodeziya kafedrasida assistent, katta o'qituvchi, dotsent lozimlarda ishlab, talabalarga "Qishloq xo'jaligi kartografiyasi", "Yer tuzishda kartografiya", "Muhandislik geodeziyasi" fanlaridan bilim berdi.

O'tgan yillar mobaynida ushbu kafedrada geodeziya, kartografiya va kadastr sohalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlandi. Hozirgi vaqtda ularning ko'pchiligi ushbu sohaga oid ishlab chiqarish korxonalarida, ilmiy-tadqiqot hamda o'quv muassasalarida muvaffaqiyatli ishlamoqdalar.

Kartografik xaritalar tayyorlashda tarixchi olim va arxeologlarning ham o'ziga xos xizmatlari bor. Xususan, S.P. Tolstov ma'lumotiga ko'ra, 1946-yil SSSR Fanlar akademiyasi arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasi Xorazm sug'orilish tizimini o'rganib, Xorazmning qo'shni hududlar bilan arxeologik xaritasi tuzishgan. Bu ishlar S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-topografik otryadi rahbari tarixchi B.V. Andrianov tomonidan tuzilgan [11. – C. 3-4.].

Sobiq Ittifoq davrida asosan O'rta Osiyo respublikalari uchun turistik va yozuvsiz xaritalar chop etilar edi. Yildan-yilga kartografik asarlarga ehtiyojning oshib borayotgani "Kartografiya" DIICHK O'zbekiston Respublikasining eng yirik kartografik korxonaga aylantirdi. Xususan, 2012-yil korxona tomonidan rus tilida ilmiy-ma'lumotnoma "O'zbekiston geografik atlas" tuzilib, nashr etildi. Mazkur atlas ilmiy-ma'lumotnoma tipidagi yangi informatsion kartografik nashr bo'lib, u fan, ishlab chiqarish va madaniyatni har xil soha mutaxassislari, davlat apparati xodimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, aholining keng tabaqalariiga mo'ljallangan. Atlasda 12 ta alohida-alohida bo'lim bo'lib, 135 ta ko'p rangli umumgeografik va mavzuli xaritalar berilgan. Ular O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini o'rganish uchun boy materialni o'z ichiga olib, tabiatning murakkab komponentlari haqida aniq ma'lumot olishga yordam beradi [15. – B. 7.].

"Kartografiya" fabrikasi ko'p yillar mobaynida O'zbekiston va qo'shni respublikalarni xalq xo'jaligi va mudofaa sohasini turli kartografik mahsulotlar bilan ta'minlab keldi. Bundan tashqari, fabrikada turli o'quv xaritalari, zamon talabi darajasidagi geografik va tarix atlaslari nashr etildi. Taklif qilinayotgan mahsulotlarning xilma-xilligi va xodimlarning malaka darajasi zamonaviy kartografiya va poligrafiya ishlab chiqarishning barcha masalalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini berdi. Korxonani yanada rivojlantirish va zamonaviy uskunalar bilan texnologik ta'minlash ishlari davom etmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonining sifat darajasi raqobatbardoshligi va barqarorligini yanada ko'tarishga yordam beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, tarixchi olimlar, etnograf va arxeologlar o'zlarining ilmiy izlanishlari davomida tarixiy hududning o'rnini aniqlash yoki tarixiy

chegarasini belgilash maqsadida o'ziga xos tarixiy-kartografik xaritalarni yaratishga muvaffaq bo'lishgan va bu orqali albatta kartografiya fani rivojiga o'ziga xos hissa qo'shishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <http://geografiya.uz/tadqiqotlar/466-turgunboy-mirzaliyev.html>
2. Абдуназаров Ў.Қ., Миракмалов М.Т. А.А.Рафиқов – серкирра илмий ижод соҳиби ва илмий мактаб асосчиси // Орол ҳавзаси геоэкологик муаммолари: илмий ғоялар, тадқиқотлар, инновациялар: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2019.
3. Баранский Н., Преображенский А. Экономическая картография. – М.: Гос. изд-во геогр. лит. 1962.
4. Гальков Ч.В., Раҳимбеков Р.У., Югай Р.Л. Ўзбекистон карталари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
5. Мирзалиев Т. Картография. – Тошкент, 2002.
6. Мирзалиев Т.М., Мухитдинов Ш.М., Базарбаев А. Атласное картографирование в Узбекской ССР. – Ташкент: «Фан», 1990.
7. Педагогик институтларнинг программалари. Топография ва картография асослари. – Тошкент, 1958.
8. Педагогика институтлари учун программалар. Карташунослик ва топография асослари. – Тошкент, 1956.
9. Салищев К.А. Картография. – М.: Высшая школа, 1966.
10. Сафаров Э.Ю., Пренов Ш.М., Беканов Қ.К. Жанубий Оролбўйи ерларини тадқиқ қилишда картографик метод ва геоахборот тизимларининг роли // Орол ҳавзаси геоэкологик муаммолари: илмий ғоялар, тадқиқотлар, инновациялар: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019.
11. Толстов С.П. О землях древнего орошения в низовьях Амударьи и Сыр-дарьи и возможности их освоения в современных условиях // ОНУ. – Ташкент, 1961. – №8.
12. Ўзбекистон Миллий университети жорий архиви.
13. Хотира. Турғунбой Мирзалиевич Мирзалиев // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 58 - жилд. – Тошкент, 2020.
14. Шарипов Ш.М. Рафиқов Асом Алимович – олийжаноб инсон, серкирра олим, ғамхўр устоз // Орол ҳавзаси геоэкологик муаммолари: илмий ғоялар, тадқиқотлар, инновациялар: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019.
15. Эгамбердиев А. “Картография” илмий ишлаб чиқариш давлат корхонаси 80 йил халқ хизматида // “Ўзбекистонда комплекс ва мавзули харитага олиш: тарих, назария, методлар, амалиёт” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2014.
16. Эгамбердиев А. Атлас картографияси илмий мактаби // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 43 - жилд. – Тошкент, 2014.